

O‘ZBEKISTONDA TEATR SAN’ATINING RIVOJLANISH TARIXI HAMDA JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Sadiyev Sanjar Zulfiqorovich

Surxondaryo viloyati musiqali drama teatri administratori

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbek teatri har bir millat vakillari uchun muqaddas maskan ekanligini, birinchi o‘zbek teatr truppasi, teatr san’ati taraqqiyoti haqida hikoya qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Teatr, sahna, aktyor, dramaturg, rejissor, truppa, repertuar, iste’dod.*

KIRISH

Milliy mustaqillikka erishganimizning yana bir natijasi shu bo‘ldiki, jahon tarixida katta o‘rin tutgan o‘zbek xalqining ma’naviyati, madaniyati va san’ati qayta jonlandi. Iqtisodiy ijtimoiy ma’naviy, ma’rifiy, madaniy yuksalish yo‘lida har tomonlama mukammal o‘ylangan islohotlar amalga oshirildi.

O‘zbek milliy teatr san’ati davrlari silsilasida qator bosqichlardan o‘tib, nihoyat o‘z an’anaviy shaklini topishga erishmoqda. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “2020-yil 26-martdagi madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni jumladan teatr faoliyatini rivojlantirish tizimida qator islohotlar va yangiliklar uchun muhim qonuniy asos bo‘ldi. Shu o‘rinda qayt etish joizki teatr san’ati ravnaqida tajribali mutaxassislar bilan birgalikda yosh kadrlarni ham tobora ortib bormoqda.

Birinchi o‘zbek teatr truppasi Toshkentda 1914-yil o‘rtalarida shakllana boshladi. Toshkent ma’rifatparvarlarining ilg‘or vakillaridan bo‘lgan atoqli pedagog, shoir, dramaturg Abdulla Avloniy o‘z tarjimai holida “Turon ismli teatr xayriya jamiyatini yuzaga chiqardim” deb yozadi. Turkiston zaminida yangicha teatrning paydo bo‘lishi jadid ma’rifatparvarlarini tashabbusi bo‘lib, iularning jamiyat ijtimoiy hayotini ma’rifatni madaniyatini tubdan o‘zgartirish yangilash borasidagi qarashlarini yana bir ifodasi edi. Ular birinchi bo‘lib sahnalashtirgan asar Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asari edi. 1911-yilda yozilgan pyesani nashr ettirish uchun mashaqqatlar ikki yil muvaffaqiyatsiz o‘tadi. Asar faqat bo‘lib o‘tgan rus, fransuz urushidagi ruslarning g‘alabasining 100 yilligiga bag‘ishlangan Teflisdagi Sezarga yuboriladi. So‘ngra nashr ettirish uchungina imkon beriladi. 1914-yil 27-fevralda Kalve teatrda ushbu asarning premyerasi bo‘lib o‘tdi. Milliy teatrning tug‘ilishi osonlik bilan kechgani yo‘q. Garchi u katta g‘alabalarni maqsad qilib olgan bo‘lsada, bu harakatlarga qarshilik qilayotgan insonlar o‘sha vaqtda ham bo‘lgan. 1920-yil sahnalashtirilgan G‘.Zafariy qalamiga mansub “Halima” musiqali drama spektakli sahna ijrochiligida professionalizm va tomoshaviylikni ta’minladi. 1921-25-yillar davomida “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Qaroqchilar”, “Makr va muhabbat” singari drama, musiqali drama, fojia janrlarga oid asarlar sahnalashtirildi. Bu spektakldagi

obrazlar talqini, rejissuradagi sinchkovlik amallari teatr jamoashasini realizm va professionalizm yo‘liga safarbar etdi. 1924-yilda Moskvada ochilgan o‘zbek drama studiyasiga

M.Uyg‘ur va Cho‘lpon boshchiligidagi A.Hidoyatov, M.Muhammedov, Obid Jalilov, T.Sultonova kabi bir qator ijodkorlar bilim va mahoratlarini oshirishga yuborildi. Sayfi Olimov boshchiligidagi boshqa bir guruh Boku teatri texnikumiga o‘qishga jo‘natiladi. Mazkur tadbir jahonning yetuk teatrlari tajribasini amalda yaqindan o‘rganib o‘z ijro mahoratlarini toblashda muhim bosqich bo‘ldi. Moskvadan qaytgach teatr jamoasi qayta tuzilib unga Sayfi Olimov boshliq etib tayinlandi. Bokudan qaytgan teatr jamoasiga esa Halima Nosirova, Zuhur Qobilov, Karim Yoqubov, Rahimberdi Bobojonov shuningdek, yoshlardan Shukur Burxonov, Olim Xo‘jayev, Nabi Rahimov, Karim Zokirov, Shohida Ma‘zumovalar qo‘shildilar. 1927-30-yillarda “Arslon”, “Halima”, “Farhod va Shirin” kabi spektakllar sahnalashtirildi. Shu asarlar sahnaga qo‘yilganidan so‘ng ham ularga har xil nomlar “Otasini o‘ldirgan padarkushlar” deb murojaat qilgan. Ijodkorlar bunday nomlashlariga qarshi bo‘lganlar. Bu insonlarni tarix o‘z ichiga olgan va tarix zarvaraqlariga muxrlab qo‘ygan. Teatrga 1929-yil “Hamza” nomi, 1933-yil Akademik drama teatri maqomi berildi.

“Padarkush” dramasi ilk bor Kalve sahnasining 1100 kishilik zalida namoyish qilingan. Lekin dramani ko‘rishga kelgan tomoshabinlar zalga sig‘may ketadi va shovqin ko‘tariladi. Uni o‘sha paytda Toshkent ma‘rifatparvarlari orasidan moddiy jihatdan truppaga yordam bergan ziyoliy parval shaxslardan biri Munavvarqori Abdurashidov sahnaga chiqadi va “teatr ibratxona” ekanligini aytib ularni tinchlantirgan.

“Sahna shunday minbarki, undan turib ichingdagi dardingni, quvonch iztirobingni va boshqa his-tuyg‘ularni bemaolol aytishing mumkin. Teatr san‘ati, musiqa, raqs va boshqa san‘atning boshqa turlari orqali insoniyatni tarbiyalash ularga estetik zavq berish mumkin. Ezgulikka undash, qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun esa ijrochining mahoratiga tayanish to‘g‘ri natijadir. Teatr shunday maskanki, u yerda ishlagan, o‘sha muhitga kirgan, yashagan inson sehrlanmasdan qolmaydi. Chunki, u yerning o‘ziga xos, oddiy insonlar anglab his etib bo‘lmaydigan sinoati bor.”

Turkistonda ilk bor Kalve teatrida Turon truppasi ish boshlaydi. Truppa 1914-yillar oxirida Xoji Mo‘min va Nasrullo Qobilning “To‘y” drammasini sahnalashtiradi. 1915-yildan boshlab Milliy dramaturgiyaning yangi-yangi namunalari Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi”, “Pinak”, Xoji Mo‘minning “Mazluma xotin” pyesalari truppa repertuarlaridan o‘z o‘rnini oladi. Turon truppasi ma‘rifatparvarlik g‘oyalarini uyg‘otishga yordam beradi. Ular yaratgan asarlari xalqni qanchalik ulug‘lagan va ongli inson ekanligini yana bir karra ochib beradi. Truppadan mablag‘larni o‘sha vaqtlarda jadid uslubida ochilgan maktablarga kerakli jihozlar va adabiyotlar olish uchun beradi. 1950-yillarda truppaga Toshkent teatr san‘ati institutining yosh bitiruvchilari qo‘shiladi. Keyingi yillarda ular yetakchi aktyorlar qatoridan joy oladi. Bular jumlasidan Nabi Rahimov, Hamza Umarov, Lufixonim Sarimsoqova, G‘ani Azamov, Zaynab Sadriyeva, Ikroma Boltayeva, Maryam Yoqubova va juda ko‘plab buyuk

namoyondalarimiz kelib o‘z ijodlarini boshlaydi. O‘zbek milliy teatr san’ati bugungi o‘z taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarayotgan davrni boshdan kechirmoqda. Bu taraqqiyot bosqichi 1991yilda O‘zbekiston davlati mustaqillikka erishgan kundan boshlab yuz bera boshladi. Mamlakatimiz istiqbolining dastlabki kunlaridanoq birinchi Prezidentimiz Islom Karimov iqtisodiy muammolari bilan bir qatorda madaniyat va ma’rifat masalalariga ham katta e’tibor qaratadilar. Milliy teatr san’atiga, ravnaqiga ga’mxo‘rlik davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mana shu nuqtai nazardan mulohaza yuritsak, teatr san’atini rivojlantirish davlat ahamiyatiga molik ish ekanligiga davlat tomonidan ko‘tarilayotgan obro‘-e’tibori va nufuzining yuksaltirilganiga guvoh bo‘lamiz. O‘tish davrining o‘ziga yarasha iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay keyingi yillarda birorta teatr o‘z faoliyatini to‘xtatmagani ham O‘zbekistonda barqaror madaniy siyosatni olib borayotganidan dalolat beradi. Xolbuki, Sobiq Ittifoqning boshqa mamlakatlarda butunlay boshqacha manzara hukmronlik qilgan. Davlatning qo‘llab-quvvatlayotganining boisi mamalakatda 36 ta professional teatr va studiyalar faoliyat ko‘rsatib, drama, musiqali drama, opera, balet va qo‘g‘irchoq teatrlari singari ximlaxil teatr turlari tobora rivojlanib nodavlat va xususiy teatrlar vujudga kelmoqda. Xalqning ma’naviy dunyosini yoshlar tafakkurini sara sahna asarlari bilan uyg‘otmoqda. Bular jumlasiga “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, “Oltin devor”, “Kuyov”, “Parvona”, “Farmonbibi arazladi”, “Iymon” bular teatr san’atida o‘chmas oltin lentalarga yozilgan sahna asarlaridir. Bu asarlarni tomosha qilgan har qanday insonni ruhan poklab ma’naviyatini, madaniyatini oshirishga yordam beradi. Ularni sahnada yaratgan obrazlarini maromiga yetkazib ijro qilib, xalq mehrini qozongan iste’dodli san’atkorlar deb bilamiz. Teatr shunday maskanki, u yerga kirgan inson beixtiyor o‘zini ko‘radi. Sahnada qo‘yilayotgan sahna ko‘rinishlarini tomosha qilayotgan odam hayotdagi o‘rni, qilayotgan ishlarini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini bilib hayot yo‘llarini sarhisob qilishga yordam beradi.

Bugungi kunda o‘zbek teatrining jahon teatrlari bilan hamkorlikda rivojlanmoqda. Keyingi yillarda o‘zbek teatri namoyondalari Germaniya, Fransiya, Hindiston, AQSh, Belgiya, Misr kabi davlatlarda bo‘lgan nufuzli festivallarda qatnashdilar. O‘zbek rejissorlari va aktyorlarini boshqa mamlakatlarga taklif qilish ham odat tusini olgan. Qozog‘iston, Tojikiston, AQShdan kelgan rejissorlar teatrlarimiz sahnasidan spektakllar sahnalashtirmoqdalar. Ispaniyalik va amerikalik san’at ustalari operalarda drijorlik qilmoqdalar. O‘zbekistonlik rejissorlar esa Fransiya, AQSh, Izroil, Rossiya teatr sahnalarida o‘z sahna ko‘rinishlarini namoyish qilganlar. Bunga oid masalalar ko‘p bo‘lmasa-da ular ravnaq topib bormoqda natijalar esa bunday ijodiy aloqalarni samarali ekanidan dalolat beradi. 1991-yil oxirlaridan boshlab mamlakatimizda ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotining yangi davri boshlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqil deb e’lon qilindi. O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat barpo etishdek oliyjanob g‘oya, yangi jamiyat qanday bo‘lishi, adabiyot san’at namoyondalariga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Rejissorlarning teatrdagi ijtimoiy muhitini, uning hayoti bilan aloqasini o‘z yo‘li va qiyofasini tanlab shakllantirib olish yo‘lidagi urinishlari behuda ketmadi. Teatr sahnasida kamdan-kam bo‘lsa ham lekin mamlakatimizni ijtimoiy va madaniy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga hamohang

qahramonlar qismati haqida hikoya qiluvchi spektakllar sahnalashtirilgan ekan tobora maqsadga muvofiq ish tuta boshladi. Mustaqillikka erishishi bilan teatr sahnasiga qo‘yilgan dastlabki jiddiy asar “Sohibqiron Temur” spektakli bo‘ldi. Bu spektaklni 1991-yil o‘rtalarida K.Yo‘ldashev sahnasiga olib chiqdi. Bu buyuk ingliz dramaturgi Krestofer Marlanning “Buyuk Temurlang” tragediyasining sahnaviy talqini bo‘ldi. Bu dramani A.Samad o‘zbek tiliga o‘g‘irgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytish kerakki, Hamza nomidagi teatrning 90-yillardagi faoliyati misolida teatr san’ati taraqqiyotida muhim tamoyillarda bilan bir qatorda ayrim ziddiyatlari ham o‘z ifodasini topdi. Teatr jamoasining yutuqlari singari kamchiliklari ham mamlakatimiz teatr san’ati ravnaqiga bevosita ta’sir ko‘rsatib keldi. Bu borada teatr jamoasi hamisha o‘ziga xos betakror ijodiy uslubiga ega bo‘lgani diqqatga sazovordir. Bu dargohda o‘ziga xos aktyorlik maktabi shakllangan. Uning ijodiy jamoasi mamlakatimizda hamon yetakchilik qilmoqda. Mazkur teatr ijtimoiy va ma’naviy hayotimizda uzoq vaqt yetakchi o‘rin tutib, teatr san’atining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Milliy san’atning boshqa dorilfunun teatrlari uchun ibrat namunasi bo‘lib keldi. Bu ijodiy jamoaga 1960-80-yillarda To‘la Xo‘jayev, Aleksandr Gezbug, Bahodir Yo‘ldashev, Rustam Hamidov singari iste’dodli rejissorlar yetakchilik qiladilar. Ular teatrni dastlabki avlodga mansub benazir rejissor va aktyorlar boshlagan yuksak badiiy an’analar davom ettirish bilan bir qatorda yanada rivojlantirdilar. Jahon va milliy mumtoz asarlar, O‘zbekiston birinchi marta aynan shu san’at dargohida sahnalashtirdi. Teatr ijodiy jamoasining butun o‘zbek teatr san’ati ravnaqiga ta’siri, milliy madaniyatimizda tutgan o‘rnini beqiyos ekanligini ko‘rsatib o‘tishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo‘ra Mahmudov, Sahna kompozitsiyasining alifbosi, Toshkent-2006y.
2. Xoliqulova G. Sahna nutqi. Toshkent – 2007 y.
3. Boltaboeva U. Sahna nutqi. Toshkent, INNOVATION-ZIYO, 2019.
4. Qurbonov, M. (2021). AKTYORLIK MAHORATIDA KECHINMA SAN’ATI. Oriental Art and Culture, (7), 26-36.
5. Qurbonov, M. (2021). Director and Author. International Journal of Culture and Modernity, 11, 83-89.
6. Mamatqulov, B. (2021). O‘ZBEK AN’ANAVIY QO‘G‘IRCHOQ TEATRIDA IJROCHILIK SAN’ATINING O‘ZIGA XOSLIKLARI. Oriental Art and Culture, 2(4), 139-148.
7. Mamatqulov, B. (2022). QO ‘G ‘IRCHOQ TEATRI AKTYORINING XUSUSIYATLARI. Oriental Art and Culture, 3(1), 70-76.
8. Mamatqulov, B. (2022). BOLALARNI TARBIYALASHDA QO ‘G ‘IRCHOQ TEATRINING AHAMIYATI. Oriental Art and Culture, 3(1), 435-442.

9. Xudoynazarova, S., & Mamatqulov, B. (2022). IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR VA YOSHLAR HAYOTIDA XOREOGRAFIYA SAN'ATINING O'RNI. Oriental Art and Culture, 3(1), 741-744.
10. Mamatqulov, B. (2022). Directing in Puppet Theater. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2(1), 123-127.
11. Mamatqulov, B. (2021). QO'G'IRCHOQ SPEKTAKLLARINING YARATILISHIDA BOSHQARUV MEZONLARINING O'RNI. Oriental Art and Culture, 2(4), 131-138.
12. Ahmedov, Z., & Umarova, X. (2021). Stage Approach and Story Evaluation Criteria. International Journal of Culture and Modernity, 11, 8-15.
13. Raximberdiyevich, M. A. (2022). TEMP VA RITMNING AKTYORLIK SAN'ATIDA TUTGAN O'RNI. Oriental Art and Culture, 3(1), 15-19.
14. Raximberdiyevich, M. A. (2022). YOZMA DRAMATURGIYAGA ASOSLANGAN QO'G'IRCHOQ TEATRIDA AKTYORNING O'RNI. Oriental Art and Culture, 3(1), 20-28.
15. Madaliev, A., & Mirsolieva, D. (2022, March). QO'G'IRCHOQ TEATRI SAN'ATI. In Archive of Conferences (pp. 92-95).